

BOLALAR ADABIYOTI

Zokirova Sohibaxon Muxtoraliyevna

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika fanlari doktori

Ahmadjonova Malikaxon Mansurjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Nazarova Gulhayoxon Mo'ydinjon qizi

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishi va adiblarimizning qo'shgan hissalarini haqida so'z boradi. Adabiyot bu insonni aqliy va ruhiy rivojlantiruvchi vositadir.

Kalit so'zlar. Xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, hozirgi zamonaviy bolalar adabiyoti, ma'rifatparvarlik adabiyoti.

Kirish.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi na'munalari yozma adabiyotining maydonga kelishi va rivojlanishiga boy manbai bo'lib xizmat qiladi. Kitoblar esa yoshlarni yetuk va barkamol inson sifatida tarbiyalashda asosiy omillardan biridir. Har bir davlat, jamiyat o'z kelajagini qurishda bolalar tarbiyasida, ilmiy egallashda, ularning kelajaklarini yaratishda bolalar adabiyoti muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalq og'zaki ijodiga: topishmoq, rivoyat, afsona, ertaga, matal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari kiradi.

Asosiy qism. Bolalar adabiyotiga o'zgarish xos xususiyatdir ya'ni bolalar adabiyoti o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga olib boruvchi bilim") dostonida hamda Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy asarlarida til, ilm, fan, odob-axloq masalalari keng qamrab olinadi. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir.

Bundan tashqari bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Chunki bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga boy ravishda yechilishini talab qiladi. O'zbek bolalar adabiyoti Jahon bolalar adabiyotining ilg'or an'analari ta'sirida rivojlanadi. Jahon bolalar adabiyotining nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib ular sirasiga kiruvchi "Gulliverning sayohatlari" (J. Swift), "Robinzon Kruzo" (D.Defo) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarning ham sevib mutolaa qiladigan asarlari bo'lib kelmoqda.

AIisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt saodati

uchun kurashgan, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U adaolatparvar, donishmand davlat arbobi, o'zbek muntoz adabiyotining yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori sifatida, davrning madaniy hayotiga rahnamo bo'ldi, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga homiylik qildi, ko'plab shogirdlar yetishtirdi.

XV- XVI asrlarda yashab, ijod etgan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida o'sha davr hayotiga doir tarixiy voqealar bilan birga, ilm-fanga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan, turli xalqlarning urf-odatlari, til, san'at va adabiyotida yoritilgan. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida o'zining muhim ijtimoiy qarashlarini el- ulus taqdiriga munosabatini hayotiy timsollar orqali ifodaladi.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Munavvarqorilar tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloq- odobi haqida materiallar berilgan.

Bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. 30-yillarga kelib, she'riyatda Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Shukur Sa'dulla, Mahmuda Oqilova kabi bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar. Sadreddin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, O'zbekiston, Elbek, Shakir Sulaymon va G'ayratiylar ham o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish uchun munosib hissalarini qo'shdilar. Bolalar qissachiligidagi Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim kabi ulug' adiblarning xissasi katta.

Bolalar adabiyotiga o'zining munosib xissasini qo'shgan Xudoyberdi To'xtaboyevning ("Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Shirin qovunlar mamlakati") asarlarida bolalarning har tomonlama yuksalishiga katta yordam beradi.

Xulosa

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimagadir o'rgatadi, nimagadir da'vat etadi. Bu asarlarning ko'pchiligidagi ilgari surilgan ona Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish, noshukur bo'lmaslik, ota-ona pand-nasihatiga qulq solish, odamlar xizmatini bajarish, beminnat yordam ko'rsatish kabi yuksak g'oyalilar har bir o'quvchi yoshga o'qish, bilim olish, sergak va tadbirkor bo'lish hamda quvnoqlikka intilish uchun katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G.Rahimova. Ona tili va adabiyoti (bolalar adabiyoti).O'quv qo'llanma-Samarqand
2. Borodich A.M.Bolalar nutqini rivoylantirish usullari. - M.2014
- 3.Jumanboyeva M. O'zbek bolalar adabiyoti.
- 4.Masharipova. Z. O'zbek xalq Og'zaki ijodi.
- 5.Jahongirov.F O'zbek bolalar folklori.
- 6.Mirzayev.I.K Muhiddinova B. "O'zbek adabiyotini o'qitish" metodikasi Toshkent
- 7.Qosimova K.Matchonov S, Sariyev.Sh Ona tili o'qitish metodikasi
- 8.Suyumov. A Kichkintoylar adabiyoti,- T 1962
- 9.Husanboyeva, Q. Niyozmetova R Adabiyot o'qitish metodikasi-Toshkent:
"INNOVATSIYA-ZIYO" , 2020